


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 2 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 2



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-2>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. **Djumanova Dilbar Raximovna, Bakiyeva Gulandom Xisomovna, Yuvasheva Shoiraxamamadovna**
MAQOLLARNING GENDERLIK: RUS VA INGLIZ TILLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR SEMANTIKASI.....6
2. **Xajiyeva Difuza Adambayevna**
HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI: BAHOR, TOG' VA TUN POETIK SEMANTIKASI.....12
3. **Эргашева Дилфуза Камиловна**
ЦЕННОСТНЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ЖЕНСКОЙ ПРОЗЕ.....17
4. **Grigoryeva Mariya Vitalyevna**
RUS VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA XRONOTOP (FAZOVIY KONFIGURATSIYA) NING BADIY VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....21

TARIX

1. **Abdullayeva Laylo**
O'RTA SINFNING SHAKLLANISHI VA UNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI.....25
2. **SHeripov Umarbek Atajanovich**
MARKAZIY OSIYODA SUV XAVFSIZLIGI MUAMMOSI VA SIBIR DARYOLARINI BURISH LOYIHASI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY GEOSIYOSIY TAHLIL.....30
3. **Kamolova Habiba Muhammadiyevna**
AMIR TEMUR VA SHAHRISABZ: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT....34
4. **Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich**
1945–1956-YILLARDA XORAZM VILOYATIDA PENSIYA TA'MINOTI (YUTUQ, KAMCHILIK VA TAFOVUTLAR).....38
5. **Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna**
V–XI ASRLARDA JANUBIY OROLBO'YI HUDUDIDA AHOLI TURAR-JOYLARINING MADANIY-XO'JALIK RIVOJI VA IQTISODIY-ETNOMADANIY MUNOSABATLAR (XORAZM ARXEOLGIK TADQIQOTLARI ASOSIDA).....43
6. **Jumaniyazova Intizor To'likinova**
MAMLAKATIMIZDA DINIY TA'LIM VA UNING HUQUQIY ASOSLARI.....48
7. **Alimova G'unchaxon Baxodirovna**
ARAB MUHAMMADXON VA UNING AVLODLARI DAVRIDA XIVA XONLIGINING MUSTAHKAMLANISHI.....52
8. **Г.А. Дадамирзаева**
ЎЗБЕКИСТОНДА ХУНАРМАНДЧИЛИК КООПЕРАЦИЯСИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ.....56
9. **Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li**
TA'LIM TIZIMIGA KOMMUNISTIK G'OYALAR TATBIQI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI.....63
10. **Matkarimova Intizor Atabayevna**
AHOLINI RO'YXATGA OLIHNING JAHON TAJRIBASI.....69

FALSAFA

1. **Nurmatov Jaxangir Yeshbayevich, Turobov Bekpulat Nusratullayevich**
E.E.BERTELS ASARLARIDA NAVOIY MA'NAVIY MEROSI TAHLILI.....76
2. **Bozorov Mustafu Jabborovich**
MIGRATSIYA JARAYONINING GENEZISI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL.....82

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li
University of Business and Science dotsenti
E-mail: lutfillomamasaidov2@mail.ru
ORCID: 0009-0004-3573-6787

TA'LIM TIZIMIGA KOMMUNISTIK G'OYALAR TATBIQI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19007662>

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston SSR davrida maorif tizimiga kommunistik mafkuraning singdirilishi, uning mazmun-mohiyati hamda ta'lim orqali jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga ko'rsatgan ta'siri tahlil etiladi. Tadqiqotda kommunistik g'oyalar asosida o'quv dasturlari va darsliklarning siyosiy lashtirilishi, milliy qadriyatlar hamda an'analarning cheklanishi va ideologik jarayonlarning kuchayishi masalalari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, ruslashtirish siyosatining ta'lim tizimidagi roli, tarixiy jarayonlarning bilyoqlama talqin etilishi hamda maktablarda milliy tarixning mafkuraviy nazorat ostida o'qitilishi va uning oqibatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kommunistik mafkura, maorif, darsliklar, ruslashtirish, pioner, komsomol.

Мамасаидов Лутфилло Пайзулло угли
University of Business and Science доцент
E-mail: lutfillomamasaidov2@mail.ru
ORCID: 0009-0004-3573-6787

ВНЕДРЕНИЕ КОММУНИСТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ И ЕГО СОЦИАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация

В данной статье анализируется внедрение коммунистической идеологии в систему народного образования в Узбекской ССР, её сущность и влияние на социальную и экономическую жизнь общества через сферу образования. В исследовании рассматриваются вопросы политизации учебных программ и учебников на основе коммунистических идей, ограничения национальных ценностей и традиций, а также усиление идеологических процессов. Особое внимание уделяется политике русификации в системе образования, одностороннему толкованию исторических процессов и преподаванию национальной истории под идеологическим контролем, а также их последствиям. Кроме того, анализируется влияние коммунистической политики на систему образования в период независимости и в последующие годы.

Ключевые слова: коммунистическая идеология, просвещение, учебники, русификация, пионер, комсомол.

Mamasaidov Lutfillo Payzullo ogli
University of Business and Science Docent
E-mail: lutfillomamasaidov2@mail.ru
ORCID: 0009-0004-3573-6787

IMPLEMENTATION OF COMMUNIST IDEOLOGY IN THE EDUCATION SYSTEM AND ITS SOCIAL CONSEQUENCES

Abstract

This article analyzes the implementation of communist ideology in the education system of the Uzbek SSR, its essence, and its impact on the social and economic life of society through the sphere of education. The study examines the politicization of curricula and textbooks based on communist ideas, the restriction of national values and traditions, and the strengthening of ideological processes. Particular attention is paid to the policy of Russification in the education system, the one-sided interpretation of historical processes, and the teaching of national history under ideological control, as well as their consequences. In addition, the influence of communist policy on the education system during the period of independence and in subsequent years is analyzed.

Keywords: communist ideology, education, textbooks, Russification, Pioneer, Komsomol.

KIRISH

Kommunistik mafkurada maorif sohasining bo'g'inlari hisoblangan maktab, texnikumlar va oliy ta'lim muassasalari mafkurani targ'ib qiluvchi tuzilmalarga aylantirilgan. Barchamizga ma'lum bo'lganidek, ta'lim muassasalaridagi barcha adabiyotlar marksizm-leninizm g'oyalari asosida tashkil etilgan o'quv dasturlar va adabiyotlar asosida tuzilgan. Ayniqsa tarix, adabiyot va boshqa fanlar orqali kommunistik g'oyani o'quvchilar ongiga singdirish yuqori darajada bo'lgan. Maorif orqali mafkuraviy ta'sirni kuchaytirish uchun o'qituvchilar ham siyosiy jihatdan ishonchli kadrlar sifatida tayyorlangan bo'lib, ular partiya topshiriqlarini bajaruvchi tarbiyachilar rolini bajarganlar.

Shuni alohida qayd etish zarurki, kommunistik mafkuraning asosiy maqsadi bolalarni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalash emas, balki ularni mamlakatning eng ishonchli mehnatkash insoni sifatida tarbiyalashga e'tibor qaratilgan. Bu borada qishloq maktablarining vazifasi ancha murakkab va mas'uliyatli hisoblangan. Qishloq o'quvchilari 12–14 yoshlaridan boshlab ijtimoiy mehnatga qatnasha boshlaydilar – ota-onalari bilan brigada va fermalardagi ishlarga yordamlashadilar. Katta yoshdagi o'quvchilar esa kolxoz va sovxozlardagi mehnatda ishtirok etadilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XX asr o'rtalarida O'zbekistonda maorif tizimining holati bo'yicha bugungi kunga qadar ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Bulardan: Qodirov E. K. O'zbekiston umumta'lim maktablarining rivojlanish tarixidan deb nomlangan kitobida aynan urush yillarida maktab ta'limi sohasida amalga oshirilgan ko'plab islohotlar haqida so'zlashda bu kitob sovet davri 1979-yilda chop etilgan bo'lib, unda kommunistik qarashlar va maktab sohasidagi ayrim kamchiliklar haqida kam ma'lumotlar keltiriladi.

Прокофьева М. А. и др, “Народное образование в СССР” nomli 1967-yilda chop etilgan kitobida ham sovet davri ta'lim yuqori darajada maqtabli ushbu kitobda ham maktab sohasida sovetlar tomonidan yo'l qo'yilgan ko'plab masalalarga atroflicha to'xtalmagan.

Ro'ziqulov Sh. M. “O'zbekiston SSR ta'lim tizimidagi o'zgarishlar (1946-1991-yillar)” Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida ham XX asrni yillari davrida kommunistik mafkuraning maktab ta'limi sohasiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, ammo kommunistik mafkuraning maorif tizimidagi ko'plab jihatlar ochib berilmagan.

Bundan tashqari mazkur mavzuni yoritishda “Sovet maktabi” jurnali va “O'qituvchilar” gazetasi ham muhim ahamiyatga egadir. Ya'ni undagi maqolalardan mavzu doirasida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, O'zbekiston milliy arxivining R-94, fondida maorif sohasiga bevosita a'loqadordir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqot mavzusini yoritishda O'zbekiston SSRda maorif sohasida olib borilgan islohotlar kommunistik mafkura ta'sirida yuz berganligi va maktab ta'limidagi boshqaruv, ta'lim berish jarayonlari hamda darsliklarda milliy ananalar va qadriyatlar masalalarini yoritishda qiyosiy, tanqidiy va xronologik, pragmatik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Ma'lumki, XX asrning 60-yillarda O'zbekistonda paxta yetishtirish tez rivoj topgan bo'lsa, bunda yosh paxtakorlarning – maktab o'quvchilarining o'ziga xos ma'lum ulushi borligi, qishloq maktablarining pedagogik jamoalari buni yaxshi hisobga olishlari, o'quvchilarning qishloq xo'jalik kasblariga ishtiyoq va qiziqishlarini oshirishlari, ularni mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashlari kerakligi ta'kidlangan[1.13].

Buning natijasida maktab yoshlari orasida “mening mehnatim – respublikamning mehnati”, “qishloq maktabi komsomoli”, “har bir yosh mehnatkashga – o'rta ma'lumot” kabi vatanparvarlik harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy faoliyati umumlashtirilgan. Maktablardagi komsomol tashkilotlarning muhim yo'nalishlaridan biri respublika bo'yicha 711 ta komsomol-o'smirlar brigadalarining tashkil etilishi bo'lib, ular 1856 ta binolarni qurish va ta'mirlash ishlarida qatnashgan. To'qqizinchi va o'ninchi besh yilliklar davomida ular 5525 nafar o'quvchini jalb etgan holda 33 ta qurilish brigadasida faol ishtirok etgan[2.12].

“O'qituvchilar” gazetasining 1974-yil 29-sonida maqolada Andijon viloyati Uchqo'rg'on tumanidagi o'n bir yillik maktab o'quvchisi, o'quvchilar brigadasi boshlig'i Dilbar Yusupovaning vatanparvarlik va mehnat g'alabasining dong'i butun mamlakat bo'ylab yoyildi. Yosh paxtakor Dilbar Yusupova boshchilik qilgan brigada o'tgan yili gektaridan 43 sentnerdan paxta hosili olishga muvassar bo'ldi. U, kelgusi mavsumda 36 gektar yerga paxta ekish va gektaridan 45 sentnerdan hosil topshirish majburiyatini olgan. Bu undagi mehnat faoliyatining ilk samarasi bo'lishi bilan maktablar va o'quvchilar brigadalarining roli va ish unumdorligining yorqin timsolidir deya ma'lumot keltirilgan. Qishloq maktablaridagi o'quvchilar dalachilik brigadalarining ish unumdorligi yil sayin oshmoqda. Hozir respublika maktablari da 611 ta o'quvchi brigadasi bo'lib, unda 19000 dan ortiq komsomol, pioner va o'quvchilar ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug'ullangan. Bularga birkitib berilgan ekin maydonining umumiy miqdori 4591 gektarni tashkil etgan[3.6].

Maktab o'quvchilarini qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etish ishlari 1974-yil holatiga e'tibor berilsa, o'quvchilar brigadasi tomonidan 42847 tonna paxta, 11525 tonna don, 10897 tonna meva, 26270 tonna poliz mahsulotlari va boshqa mahsulotlarni rejadan ortiqcha qilib bajarilgan. O'quvchilar ishlab chiqarish brigadalarida paxtadan tashqari boshqa mahsulotlardan ham yuqori hosil olganlar. Masalan, Xorazmda o'quvchilar brigadalari har bir gektardan 40 sentner, Andijon, Farg'ona, Namangan va Samarqand viloyatlarida 30 sentner paxta hosilini yetishtirgan[4.2].

O'quvchilarning bu kabi ta'lim jarayonlarida ajralgan holda qishloq xo'jaligi ishlarida faol ishtiroki sovet mafkurasining o'z maqsadi yo'lida eng katta yutug'i desak mubolag'a bo'lmaydi. Yoki, bu holatlar XX asr 30-yillarida boshlangan “Jamoalashtirish” siyosatining amaldagi natijasidir.

Yildan yilga ishlab chiqarish ta'limi yo'lga qo'yilgan o'rta maktablar xalq xo'jaligi uchun malakali ishchi kadrlarni tayyorlashda tobora muhimroq rol o'ynay boshlagan. Jumladan, RSFSRda 1960-1961-o'quv yilida IX–XI sinf o'quvchilarining 59,2 foizi sanoat kasblari bo'yicha, 21,1 foizi qishloq xo'jaligi kasblari bo'yicha, 3,3 foizi qurilish sohalari bo'yicha, 1,3 foizi esa savdo tarmog'i va umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlash uchun tayyorlangan[5.33].

Bundan tashqari qishloq xo'jaligi va turli sohalarda o'rta maxsus mutaxassislarni tayyorlash masalasi ham katta natijalarga erishilgan. Ya'ni, 1976-1977-o'quv yilida yuqori sinf o'quvchilarda politexnik ta'lim bilan jismoniy mehnat o'rtasidagi tafovutni yo'qotish maqsadida ularga turli kasb-hunarlar o'rgatilgan. Masalan, traktorchilar 1570 nafar, haydovchilar 661 nafar, radistlar 700 nafar, telefonchilar 1800 nafar, mototsiklchilar 1900 nafar, elektrlashtirish 670 nafar, harbiy parashyutlarni joylovchilar 2100 nafar va boshqa mutaxassislar 3200 nafarni tashkil etgan. Politexnik ta'lim yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashlariga yordam bergan[6.5].

Kommunistik g'oyani o'quvchilar orasida yanada mustahkamlashda ko'pgina maktablar, komsomol va pioner tashkilotlari, pedagogik jamoalar o'quvchilarning tarixiy joylarga sayohatlari tashkil etilgan va sovet xalqining qahramonliklari haqida yilnomalar yaratish ishlariga katta e'tibor qaratilgan, tarixiy sanalarga bag'ishlangan tantanali yig'inlar va pionerlar yig'inlari tashkil etilgan. Ko'plab pioner otryadlari va jamoalari inqilob, fuqarolar urushi faxriylari, Sovet Armiyasi askarlari ishtirokida unutilmas joylarda yig'inlar o'tkazish bilan birga, bu davrda V. I. Lenin haqida, inqilob, partiya tarixiga oid suhbatlar, kinofilmlar namoyish etilgan. Sotsialistik mamlakatlar va qardosh ittifoq respublikalarining pionerlari va maktab o'quvchilari bilan do'stlik haftaliklari an'anaviy tus olgan.

Shuningdek, Sovet davlatining mafkuraviy qarashlarini o'zida mujassam etgan va kommunistik jarayonlarning rivojlanishida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tuzilma "Xalq universitetlari" hisoblanadi. Ushbu universitetlar amalda jamoaviylik asosida tashkil etilgan mustaqil tashkilot deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Ular ta'lim va tarbiyaning boshqa tizimlari bilan bir qatorda siyosiy va iqtisodiy ta'lim hamda kadrlarning malakasini oshirish tizimini to'ldirgan.

Dastlabki xalq universitetlari O'zbekiston SSRda 1958-yili tashkil etildi. 1977-yili SSSRda 40 mingga yaqin xalq universitetlari ishladi, ularda 10 mlndan ortiq kishi ta'lim oldi, 510 mingdan ortiq olim va mutaxassis dars berdi. Jumladan, O'zbekiston SSRdagi 2 mingta xalq universitetida 230 mingdan ortiq kishi ta'lim oldi, 10 mingdan ortiq olim va mutaxassislar ta'lim berdi. Xalq universitetlarida o'qish bepul bo'lib, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borildi. Ularning rivojlanishida KPSS Markaziy Qo'mitasining "Xalq universitetlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 1968-yil 8-oktyabr qarori hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Unda turli yo'nalishlardagi xalq universitetlarining maqsad va vazifalari, shuningdek, o'sha yilning o'zida asosiy boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi organ sifatida Xalq universitetlari markaziy kengashi tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari ilmiy bilimlarni targ'ib qilishda, mehnatkashlar orasida marksistik-leninchilik dunyoqarashini shakllantirishda, madaniyat va ma'rifat darajasini oshirishda, xalq xo'jaligining turli sohalari uchun kadrlar malakasini yuksaltirishda katta rol o'ynaydi. Xalq universitetlari quyidagilarga ega bo'lishi kerak edi: talabalarning doimiy tarkibi (kamida 100 kishi), malakali o'qituvchilar; o'quv rejalari va dasturlari (yiliga kamida 32 ta ma'ruza, amaliy, seminar soatlari); o'quv va moddiy-texnika bazasiga ega bo'lib, Xalq universitetlarining mashg'ulotlari maktab, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, klub muassasalarida, korxona, kolxoz, sovxozlarning ishlab chiqarish binolarida o'tkazilgan[7.18].

Xalq universitetlarida pedagogik faoliyatni 200 mingdan ortiq olimlar, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va maktab muallimlari, madaniyat xodimlari, xalq xo'jaligi mutaxassislari, ishlab chiqarish novatorlari olib borgan. Ular orasida o'z ishining haqiqiy jonkuyarlari ko'pchilikni tashkil etgan.

Eng yaxshi xalq universitetlari tajribasi shuni tasdiqlaydiki, ular ilmiy bilimlarni targ'ib qilishda, mehnatkashlarda marksistik-leninchilik dunyoqarashini shakllantirishda, madaniyat va ma'rifat darajasini, xalq xo'jaligining turli sohalari kadrlari malakasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgani kabi, Xalq universitetlarida ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, mashg'ulotlarda faol shakllar va metodlardan keng foydalanish zarur bo'lib, ular, seminarlar, referatlar tayyorlash, konferensiyalar, disputlar va suhbatlar, savol-javob kechalari, ekskursiyalar va shunga o'xshash tadbirlar[8.22].

Ammo ushbu universitetlarning faoliyati jamoatchilik tarzida bo'lsa-da ularda ishchilar, koxozchilar va yoshlarning ishtiroki juda kam bo'lgan. Bundan tashqari bu ta'limda o'quv metodik adabiyotlarning zaifligi, darslar faqatgina ma'ruza o'tishlar bilan cheklanishi hamda Xalq universitetlari faoliyatini yanada yuksaltirishda o'z davrining (radio, gazeta va televediniya) axborot tizimlari samarali faoliyat yuritmasligi ushbu tuzilmaning natijadorligini kamaytirilgan.

Lekin ushbu tuzilma maorif sohasi qatori turli sohalarni rivojlanishida katta natijaga ega bo'lgan. Huddi yuqorida ta'kidlaganimiz Ota-onalar universitetlari maktablarda davomat va ta'lim sifatini yaxshilashga katta yordam bergani kabi xalq universitetlari ham SSSRning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishining asosi hisoblanib, mamlakatdagi yagona kommunistik

mafkuraning qo'llab-quvvatlovchi tizim hisoblangan. Chunki mazkur davrda SSSR xalq maorifining asosiy maqsadi – yuqori bilimli, har tomonlama rivojlangan, faol kommunistik jamiyat quruvchilarini tayyorlash bo'lgan.

Kommunistik mafkura bir ko'rinishidan xalqlarni birlashtiruvchi yoki birgalikda yashashga undovchi g'oya sifatida butun davlatda tarannum etsa, amalda xalqlarning o'z tarixi, o'tmishini va milliy an'analari hamda udumlarini tamomila yo'q qilishga olib keladigan zararli mafkuradir.

Misol tariqasida yuqorida keltirganimiz kabi maktablarda darsliklarida sharqona mafkura va uning ta'moyillarni asta-sekinlik bilan tozalash ishlari XX asrning 20-yillaridan boshlangan bo'lsa, 60-80-yillarda bu tozalash ishlari yuqori cho'qqiga chiqdi. Ya'ni, 1977-yilda chop etilgan mualliflar Ремеев, Назыф Мустафьевичning “История Узбекской ССР для 7-8 классов” maktab darsligida O'zbekiston tarixi uchun ikki yilga mo'ljallangan 19 ta mavzudan iborat darslik mavjud bo'lgan[9.140]. Ushbu darslik O'zbekiston hududlarida ilk aholining paydo bo'lishi va ilk o'rta asr davlatchilik tarixi, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar (O'zbek feodal xonliklari) hamda O'zbekistonning Rossiya imperiyasiga qo'shilishi va uning progressiy ahamiyatiga bag'ishlangan mavzular bo'lgan.

Ushbu kitobning 37-41-sahifalarida IX-XI asrlarda O'zbekiston xalqlari madaniyati deb nomlangan mavzuda hududimizdan yetishib chiqqan qomusiy olimlar haqida qisqa lo'nda ma'lumotlar keltirilgan[10.39-41].

Bundan mustasno holda 1979-yilda chop etilgan mualliflar Nechkina M.V. Leybengrub P.S.larning “SSSR tarixi” nomli 7-sinflar uchun darsligi 57-paragrafdan iborat bo'lib, ushbu darslik ham qadimgi davrdan boshlanib XVIII asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrni qamrab olingan[11.296].

Ushbu kitob to'laqonli kommunistik mafkurani amalda namoyon qila olgan maktab darsliklaridan hisoblanadi. Sababi, darslikning 17-mavzusi O'rta Osiyoda feodal munosabatlarning rivojlanishi. Xorazmning yuksalishi mavzusida O'rta Osiyoga arablarning kirib kelishi va ularning maqsadi aholini qul qilish bo'lganligi yoki islom dini orqali kirib kelgan ko'plab qoidalar noto'g'ri ekanligi hamda dinning kirib kelishi natijasida jamiyatda xotin-qizlar manfaatlar buzilganligi kabi ko'plab masalalar ushbu mavzuda aks etgan bo'lsa, bundan tashqari qisman allomalar tarixi haqida ma'lumotlar berilgan[12.80-84].

Sovet xalqining kommunistik jihatdan erishgan yutuqlarini o'zida mujassam etgan. O'rta maktablarning 10-sinflari uchun 1989-yilda chop etilgan. Esakov V.D. Kukushkin Yu.S. Nenarokov F.Plar tomonidan tayyorlangan “SSSR tarixi” nomli darslik ham 33-paragrafdan iborat bo'lsa, ushbu darslik SSSRni tashkil topishidan to yakuniga qadar bo'lgan voqealarni o'z ichiga olgan.

Bu davrda hunar-maktab o'rta ta'lim dasturiga ega bo'lgan o'quv yurtiga aylandi. Hunar-texnika bilim yurtlarida 1300 dan ortiq ixtisoslik bo'yicha kasb o'rgatildirdi. Bulardan 600 dan ortig'i alohida murakkab kasblar sifatida ajratilib, bu kasblarga o'rgatish 12–14 kishidan iborat kichik-kichik guruhlarda olib borilgan. Shuningdek, hunar-texnika bilim yurtlari malakali ishchilarnigina emas, balki yuqori malakali ishchilarni tayyorlanganligi, bilim yurtlarida o'quvchilar stipendiya olishlari, bepul ovqat bilan ta'minlanishi haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan[13.276].

Mazkur darslikda asosiy jihat SSSRning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi faoliyati, ikkinchi jahon urushi yillari, 60-80-yillarda ilm-fanda erishilgan yutuqlar va “Qayta qurish” yillarida amalga oshirilgan islohotlar haqida mavzular yoritilgan. Ushbu kitobda dissertatsiya doirasida xalq maorifi masalasiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, 1970-yillarning birinchi yarmida SSSRda umumiy o'rta ta'limga o'tilganligi sovet xalqining eng katta ijtimoiy yutug'i bo'lgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa qilib aytganda 70-80-yillar maorif sohasi kommunistik mafkuraning jamiyat hayotiga singdirishdagi eng muhim qurol vazifasini bajardi. Ya'ni kommunistik mafkura jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatdan boshqarishning muhim vositasiga aylantirildi. Bu yo'lda barchamizga ma'lum bo'lganidek, maktablarda pionerlar va komsomol tashkilotlar tashkil etildi.

Kommunistik mafkura maktab ta'limi sohasiga singdirilishi, avvalo, o'quv reja va dasturlarda o'z aksini topgan. Yuqorida keltirganimizdek, marksizm-leninizm asoslari, ilmiy ateizm, KPSS tarixi, siyosiy iqtisod kabi fanlar maktablarda majburiy tarzda o'qitildi. Tarix, adabiyot va jamiyatshunoslik fanlari sinfiy yondashuv asosida talqin qilinib, sovet tuzumining "tarixiy ustunligi"ni isbotlashga xizmat qildi.

Maktablarda kommunistik mafkurani o'quvchilar orasida yoyishga bag'ishlangan dars jarayonlarida yoki darsdan tashqari olib borilgan "kommunistik axloq, siyosiy axborotlar va ateistik targ'ibot tadbirlari" yosh avlod ongini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Bu jarayon o'quvchilarni jamoaviylikka, mustahkam intizom va davlatga sadoqat kabi jihatlarni rivojlantirgan bo'lsa-da, shaxsiy tashabbus va mustaqil fikrlashni ikkinchi darajaga tushirdi. Amalda esa haqiqiy "Sovet odamini" tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Головачева Л.И. Қишлоқ аҳолисининг турмуш маданиятини оширишда халқ маорифининг роли // Совет мактаби. 1982. –№ 2. –Б. 13.
2. Ахмедов С.А. Роль комсомола и молодежи в дальнейшем развитии народного образования в Узбекистане (1971-1980 гг). Автореф. дисс... для к.и.н. –Т. 1987. –Б. 12.
3. КПСС XXII съезди ва мактаб // Совет мактаби. 1962. –№ 2. –Б. 6.
4. Қобилжонов О. Ҳазина ўқувчилар ишлаб чиқариш бригадалари илғорлари V республика ҳаёти ва меҳнат таълими ҳамда касб танлаш I республика конкурсидан / Ўқитувчилар. 1974. –№ 29. –Б. 2.
5. Каирова И. А. Советская школа на современном этапе. "Издательство Академии педагогических наук РСФСР". – Москва. 1961. –С. 33.
6. ЎЗМА. Р-94 фонд, 7-рўйхат, 4197-иш, 5-варақ.
7. Расулова Н. С. Совет даври маориф тизимида халқ университетларининг ўрни. Jamiyat va innovatsiyalar. №3. 2023. –Б. 18.
8. Об улучшении работы народных университетов: Постановление ЦК КПСС от 8 октября 1968 г. // КПСС о культурно-просветительной работе. –М.: Советская Россия, 1972. <https://docs.historyrussia.org/ru/nodes/44647>
9. Ремеев, Назыф Мустафьевич. "История Узбекской ССР для 7-8 классов". – Ташкент., Ўқитувчи, 1977. –С. 140.
10. О'sha manba... –С. 39-41.
11. Нечкина М.В. Лейбенгрупп П.С. "СССР тарихи". –Ташкент., Ўқитувчи, 1979. –Б. 296.
12. О'sha manba... –Б. 80-84.
13. Есаков В.Д. Кукушкин Ю.С. Ненароков А.П. СССР тарихи (ўрта мактабларнинг ўнинчи синфлари учун). –Ташкент., Ўқитувчи, 1989. –Б. 276.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].